

**Jinoyat protsessida ishtirok etishga monelik qiladigan xolatlar va rad qilish asoslari**

**Durdubaeva Nargiza Muratbaevna**

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada jinoyat protsessida ishtirok etishga monelik qiladigan holatlar va ushbu holatlar mavjud bo'lganda protsessda ishtirok etishni rad etish asoslarini ko'rib chiqadi. Shuningdek ushbu holatlarda ishtirok etadigan asosiy shaqslar doirasi ularning protsessual maqomi, ishda rad qilish huquqi, rad qilish asoslarini va bu yo'nalishda xorij tajribasi tahlil qilinadi.*

***Kalit so'zlar:** Jinoyat protsessi, rad etish, monelik qiluvchi holatlar, sudya, proruror, tergovchi, guvohlar, ayblanuvchilar, qarindoshlik.*

***Аннотация.** В статье рассматриваются рассматриваются обстоятельства, препятствующие участию в уголовном судопроизводстве, и основания отказа от участия в судопроизводстве при наличии этих обстоятельств. Анализируется круг основных фигурантов этих дел, их процессуальный статус, право на отказ по делу, основания отказа, зарубежный опыт в этом направлении.*

***Ключевые слова:** уголовный процесс, отвод в суде, юридические трудности, судья прокурор, следователи, свидетели, обвиняемые, родственники.*

***Annotation.** This article considers the circumstances that prevent participation in the criminal proceedings and the grounds for refusal to participate in the proceedings in the presence of these circumstances. It analyzes the scope of the main persons involved in these cases, their procedural status, the right to refuse in the case, grounds for refusal, and foreign experience in this direction.*

***Keywords:** Criminal proceeding, denial, impeding circumstances, judge, prosecutor, investigative, witness, defendants, relationship.*

Jinoyat protsessida rad qilish instituti protsess ishtirokchilarining qonuniy

manfaanlarini himoya qilishda sud va boshqa ishtirokchilarning xolisligini ta'minlovchi, ishning ko'rilishidan shaxsiy manfaatni ko'zlovchi ishtirokchilardan xalos bo'lish mexanizmining asosini tashkil qiladi. Rad qilish instituti ish bo'yicha haqiqatni aniqlash, protsess ishtirokchilarining qonuniy manfaanlarini himoya qilish hamda qonuniy va asosli sud qarorini qabul qilishda muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi JPKning 776-80 moddalarida jinoyat prosessida ishtirok etishga monelik qiladigan holatlar va rad etish asoslarini belgilovchi qoidalar belgilab berilgan bolib, ushbu kodeksning 76-79 moddalarda ko'rsatilgan holatlar yani jinoyat prosessida ishtirok etishga monelik qiladigan holatlar uchun asoslar mavjud bulgan taqdirda ushbu kodeksning 80-moddasida ko'rsatilgan asoslar boyicha o'zini o'zi rad qilishi yoki rad qilinishi lozimligini belgilaydi.

Shuningdek qonunda jinoyat prosessining aksariyat ishtirokchilari ish yuritilishida ishtirok etishi mumkin bo'lmagan holatlar ham nazarda tutilgan. Ularni qonunda belgilangan hollarda prosessdan chiqarib tashlash ishning xolisona o'rganilishini va mohiyati bo'yicha hal etilishini kafolatlaydi.

Jinoyat prosessida xolislikni ta'minlash maqsadida ish yurituv uchun mas'ul bo'lgan mansabdor shaxslar: sudyaning, prokurorning, tergovchining, surishtiruvchining va sud majlisi kotibining ishda ishtirok etishiga monelik qiladigan holatlar ro'yxatini belgilab berilgan bulib unga kura sudya, shuningdek xalq maslahatchisi, prokuror, tergovchi, surishtiruvchi, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ mansabdor shaxsning, sud majlisining kotibi jinoyat ishini yuritishda ishtirok etishga monelik qiluvchi holatlar quyidagilar hisoblanadi:

-u shu ish bo'yicha jabrlanuvchi, fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgar, ekspert, mutaxassis, tarjimon, xolis, guvoh, himoyachi sifatida, gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining qonuniy vakili yoki jabrlanuvchining, fuqaroviy da'vogarning, fuqaroviy javobgarning vakili sifatida ishtirok etayotgan yoki ilgari ishtirok etgan bo'lsa;

- u ushbu ishni yuritish uchun mas'ul bo'lgan biror mansabdor shaxsning yoki yuqorida tilga olingan shaxslarning qarindoshi bo'lsa;

-uning xolisligiga va beg'arazligiga shubha tugdiradigan boshqa holatlar

mavjud bo'lsa.

Ishning tergovida yoki sudda ko'rilishida ishtirok etgan yoxud ishtirok etayotgan sudya, prokuror, tergovchi, surishtiruvchi yoki sud majlisining kotibi u ushbu ishni yuritish uchun mas'ul bo'lgan biror mansabdor shaxsning yoki yuqorida tilga olingan shaxslarning qarindoshi bo'lsa ishda ishtirok etishga monelik qiluvchi holat hisoblanadi va ushbu holatda u rad qilinishi yoki o'zini o'zi rad qilishi lozim lozim.

Ushbu holatda monelik qiluvchi holatga asos boladigan holat ya'ni avvalo qarindoshlik darajasini aniqlash lozim.

O'zbekiston Respublikasi Oila huquqida qarindoshlar ortasidagi aloqalar masalasi alohida o'rin egallaydi. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi esa qarindoshlar ortasidagi munosabatlarni belgilab beradi. Ushbu kodeksining 57-moddasida qarindoshlik darajalari aniq korsatib berilgan bulib, unga kora "qarindoshlik bir umumiy uchinchi shaxsdan (ajdoddan) kelib chiqqan shaxslar qarindoshlar hisoblanadi. Ikki shaxs urtasidagi to'g'ri shajara buyicha qarindoshlikning yaqinligi qarindoshlik darajasi, ya'ni tug'ilish soni bilan belgilanadi. Bolalar ota-onasiga nisbatan to'g'ri shajaradagi birinchi, nevara bobosiga, buvisiga nisbagan - ikkinchi, evara katta bobosiga, katta buvisiga nisbatan - uchinchi darajadagi qarindosh hisoblanadi. Aka-uka, opa-singil, ularning bolalari, ota-onaning aka-uka va opa-singillari ham da ularning bolalari, bobo va buvilarning aka-uka ham da opa-singillari va ularning bolalari va shunga uxshashlar yon shajara bo'yicha qarindoshlar hisoblanadi. To'g'ri shajara buyicha qarindoshlar yon shajara bo'yicha qarindoshlarga nisbatan yaqinroqdir deyilgan." Qarindoshlikning bunday aniqlanishi shaxsning qarindoshlar qatoriga kirishini belgilaydi, uning to'g'ri va yon shajaraga nisbatan huquqiy maqomini aks ettiradi.

X.Mamedovaning fikricha qarindoshlik masalasi sud'yani rad qilish uchun asos sifatida qonun bilan aniqroq hal qilinishi kerak. Ishda ishtirok etuvchi xar qanday shaxs shu jumladan guvoh va hatto xolis bilan qarindoshlik munosabatlarning mavjudligi sudyaga o'zini o'zi rad etishi uchun asos bolishi mumkin. Bundan tashqari qonun qarindoshlik tushunchasini (rodstvennik i rodstvo)

yakin qarindoshlik tushunchasiga nisbatini aniqroq belgilashi kerak edi. Har qanday qarindoshlik aloqalar ham sudyaning xolisligiga shubha tugdira olmaydi, ya'ni qarindoshlikning ma'lum bir darajasini ko'rsatgan holda uni rad qilish yoki o'zini o'zi rad qilish kerak. Negaki, qarindoshlik tushunchasi yaqin qarindoshlik tushunchasiga nisbatan kengroqdir.

Bizning fikrimizcha ham jinoyat prosessida ishtirok etishga monelik qiladigan holatlar orasida proses ishtirokchilarining qarindoshlik darajasini aniqlashda ushbu me'yorlardan kelib chiqqan holda ishni korib chiqishda qarindoshlikning malum bir darajasini korsatgan holda rad qilish masalasini korib chiqish maqsadga muvofiq.

Jinoyat ishida ishtirok etishga monelik qiluvchi yana bir holat: ishni yuritish uchun mas'ul bo'lgan biror mansabdor shaxsning xolisligiga va beg'arazligiga shubha tug'diradigan boshqa holatlar mavjud bo'lsa. Bunga xizmat jihatdan tobelik, yani jinoyat prosessiga jalb qilingan shaxsning ishda ishtirok etayotgan shaxslardan birontasiga xizmat yuzasidan yoki boshqa jihatdan tobeligi yoki ishning yuritilishiga jalb qilingan shaxsning idoraviy tegishlilikini korsatishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsesual qonunchiligida xizmat yuzasidan tobelik tushunchasini taxlil qiladigan bulsak, shaxsning o'zi xizmat vazifasini bajarayotgan ish joyida lavozimi buyicha yuqori turuvchi shaxsga aniqrogi raxbarga buysinuvi tushuniladi. Negaki, xizmat jihatdan tobelik, ko'p jihatdan yashirin, noprosessual - ma'muriy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqqan holda, jinoyat ishining tugri va xolis ko'rib chiqilishi va hal qilinishiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

V.Moiseeva fikricha ishning natijasidan manfaatdor bulishni (zainteresovannost v isxode dela) 2 turga ajratadi: tugridan tugri shaxsiy va bilvosita shaxsiy. 1) To'gridan to'gri shaxsiy manfaatdor bulishni sudya sud prosessi natijasiga tasir qilishi yoki tasir qilishi mumkin bulgan moddiy yoki boshqa manfaatdor bo'lishi tushuniladi. 2) Bilvosita shaxsiy manfaatdor bulishga sudya ishni natijasidan togridan togri manfaatdor bo'lmaydi, lekin boshqa shaxslarning manfaatlari ya'ni sudyani befarq qoldirmaydigan shaxslar bilan yaqin qarindoshlik

aloqalar va yaqin munosabatlar va shunga uqshash sabablar bo'lishi mumkin.

Xuddi shunday N.Gasparyan ham sudyaning ishni natijasidan shaxsiy manfaatdorligi to'grisida shunday aniqlama beradi: sudyaning shaxsiy manfaatdorligi o'z xizmat vazifalarini bajarishiga tasir etuvchi yoki tasir etishi mumkin bulgan holatlar deganda sudyaning xizmat vazifasini bajarishi orqali moddiy daromatlar yoki to'gridan to'gri shu sudya noqonuniy abzalliklar olishi uning oilasi yoki boshqa shaxs va idoralar bilan sudyaning moddiy va boshqa majburiyatlar bilan bogliqligi deb tushuntiradi.

Sud tergov amaliyotida shu kabi holatlar ko'plab uchraydi va bu jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilariga nisbatan adolatsiz munosabatini ifodalaydi va fuqoralarning odil sud tergov tizimiga bolgan ishonchsizligini keltirib shiqaradi.

#### Xulosa va takliflar

Bugungi kunda sudyaning ishning natijasidan to'g'ridan to'g'ri shaxsiy va bilvosita shaxsiy manfaatdorligi isbotlash masalasi juda mushkul. Shu sababli Sud tergov amaliyotida ishning xolisona ko'rilishida biroz to'sqinliklar keltirib chiqaradi. Ishning natijasidan to'gridan tugri shaxsiy va bilvosita shaxsiy manfaatdorligi holati sifatida jinoyat ishi yurituvi uchun mas'ul shaxslarning jinoyat prosessi ishtirokchilari bilan yaqin do'st ekanligi yoxud aksincha, bir biri bilan xusumad munosabatlarda ekanligi, xizmat yuzasidan qaramligi hisobdorligi, nazorat ostida ekanligi holatlari shaxslarning xolisligi va beg'arazligini shubha ostiga qoyadigan holatlar deya tan olinadi. Ushbu holatda mazkur shaxslar ishning yakunidan manfaatdor bo'lgani bois rad etilishi yoki o'zini o'zi rad etishi lozim.

Xulosa qilib aytganda jinoyat prosessida ishtirok etishga monelik qiladigan holatlar va rad etishlar shaqs huquqlarini himoya qilish va adolatli qaror qabul qilinishining kafolati hisoblanadi. Ushbu maqsadga erishishda jinoyat protsessning har bir ishtirokchisi qonun oldida o'zini huquq va majburiyatlariga vijdonan va qonuniy yondashishi talab qilinadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

Ўзбекистон Республикаси Жиноят процессуал кодекси. “Yuridik adabiyotlar publish” Toshkent, 2022 y, 55b.

Х.Мамедова: Институт отводов В советском уголовном судопроизводстве. diss.rsl.ru - Москва: 2006. - С. 35.

Гаспарян.Н.С, Судебная практика: Отвод судье который прямо и косвенно заинтересован в исходе дела/ search.rsl.ru Москва-2012 г.

М.Ниязов. Жиноят процессида рад килиш институтининг ривожланиш асослари. “НОШИР” Тошкент 2013 й. -18 б

Моисеева Т.В. “Обеспечение беспристрастности и объективности судей при рассмотрении уголовных дел”. echr.ru/Судебная практика/ Журнал российского права, 2003.

Ўзбекистон Республикаси Оила кодекси 1998 й.